

MUSIQAGA EMOTSIONAL MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY JIHATLARI

FarDU o'qituvchisi

ULUG'BEK VALIYEVICH MAMADJANOV

ulugbek5075@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada musiqaga emotsional munosabatni shakllantirishning falsafiy jihatlari haqida fikrlari tahlil qilingan, musiqa ma'naviy kamollikka yetaklovchi vositalardan biridir, inson ma'naviy yetukligi esa – jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi qudratli kuch bo'lib, musiqaning inson ma'naviy qiyofasining shakllanishi bilan bog'lab tahlil etilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: emotsiya, olim, ilmiy meros, musiqa ilmi, tahlil, musiqa ma'naviy, kamollik, yetaklovchi, vosita.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются философские аспекты формирования эмоционального отношения к музыке. Музыка выступает одним из средств, ведущих к духовному совершенству, а духовное совершенствование человека – мощной силой, определяющей развитие общества. Особое внимание уделяется анализу музыки в связи с формированием духовного облика человека.

Ключевые слова: эмоция, учёный, научное наследие, музыкальная наука, анализ, музыкальное духовное, совершенствование, ведущий, средство.

ANNOTATION

This article analyzes the philosophical aspects of the formation of an emotional attitude to music, music is one of the means leading to spiritual perfection, and human spiritual perfection is a powerful force determining the development of society, and the analysis of music in connection with the formation of a person's spiritual image is highlighted.

Keywords: emotion, scientist, scientific heritage, music science, analysis, music spiritual, perfection, leading, means.

Kirish

Turli insoniy kechinmalarni ifoda etishga qodir bo'lgan musiqa tinglovchilarni birlashtiradi va ular o'rtasida muomala vositasi vazifasini o'taydi. K.D.Ushinskiyning ta'kidlashicha, qo'shiq bir necha ayrim hissiyotlarni bir kuchli hissiyotga va bir necha qalblarni — bitta kuchli his qiluvchi qalbga birlashtirishi mumkin. Agar o'smirni musiqa, qo'shiqni tinglayotganda, raqs ijro etilayotganda kuzatib turilsa, uning mimikasi, holati, harakati qanday o'zgarishiga osongina ishonch hosil qilish mumkin.

O'smir umumiy kayfiyatini tahriflashda xato qilishi, to'g'rirog'i uni anglatish uchun kerakli so'zlar topa olmasligi mumkin, biroq, uning butun xatti-harakati uni asar qanchalik qamrab olganini va o'z hissiyotini ifoda etishni istashini aytib turadi. Musiqa axloqiy hissiyotlarni tarbiyalashga, o'z yaqinlariga, o'z xalqiga, uning qahramonlariga muhabbat uyg'otishga yordam beradi. Musiqa o'smirning hissiyoti va fikrlarini takomillashtiradi. Musiqa taassurotlari bilan boyitish. Bu vazifa yoshlarni o'zlarining yoshlariga muvofiq keluvchi asarlar bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi. O'quv musiqa repertuari o'smir hayotini, unga tushunarli hodisalarni aks ettiruvchi cholg'u pyesa va qo'shiqlardan tashkil topgan. Bu yerda fojiali to'qnashuvlar, nozik ohanglar yo'q. Shakl va uslub yetarlicha sodda, ohanglar yorqin ifoda etilgan. Shuningdek beto'xtov taraqqiy etuvchi ifoda vositalari (kuy intonatsiyasi, garmonik birikmalar, lad bezagi) yangilanib boruvchi, bolalarni zamonaviy musiqani idrok etishga tayyorlaydigan asarlardan ham foydalaniladi.

Yoshlarni musiqiy faoliyatining har xil turlarida qatnashtirish: idrok etish, ijrochilik (qo'shiq aytish, o'yin-instsensirovka, musiqa asboblarini chalish), musiqa tahlimi bilimlari, musiqa ijodi. Bu vazifa musiqa asarlariga qo'yilishi asosiy talab — yuksak badiiylilik va soddalikka rioya qilingan taqdirdagina hal qilinishi mumkin. Ritmik harakatlar (fortepiano va vokal)ga mo'ljallangan asarlar dinamikligi, xarakterliligi, aniqstrukturalari bilach ajralib turadi. Musiqa faoliyatning har bir turi singari bilim doirasini kengaytiradi, qo'shimcha bilimlar egallashga yordam beradi.

Umumiy musiqa qobiliyati, individual qobiliyatlar, ashulachilik ovozi va harakatlarning ifodaliligini o'stirish. Musiqaga qobiliyatning sifat darajasi (eng oddiy emotsiyadan tortib, to ijodining namoyon bo'lishigacha), o'smirning individual moyilligi, iroda kuchi va aqliy qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi. Bu o'rinda eng asosiysi emotsional va eshitish komponentlaridir. Yoshlarda ashula intonatsiyalari, turli xarakterdagi cholg'u pyesalarga nisbatan emotsional ta'sir tarbiyalanadi. Shu bilan birga ularni asarni tanish, farqlash, qarama-qarshi va o'xshash qismlarini qiyoslashga, tovush, ritm, dinamik o'zaro munosabatlarni bilishga o'rgatib, musiqa, kuylash qobiliyati, ritmni his qilish va shuningdek ijrochilik qobiliyatlari o'stiriladi.

Musiqaga bo'lgan didni o'stirish. Yoshlarni kuzatib, ulardan ba'zilar kuylash yoki raqsga tushishni, musiqa asboblarini chalishini yoki musiqa tinglashni afzal ko'rishiga osongina ishonch hosil qilish mumkin. Bu doimo o'stirib va takomillashtirib borilishi kerak bo'lgan bolalar didining xilma-xilligidan dalolat beradi. Musiqa obrazlari o'smir hissiyotini qo'zg'aydi, uni musiqa nima haqida «hikoya qilayotganligi» ustida fikr yuritishga majbur qiladi. U tovushlarni, ular birikmasini go'zalligini, garmonikligini idrok qilar ekan, ularning barchasini birorta real narsa bilan qiyoslashga intiladi va asta-sekin jaranglovchi olamning intonatsiya tabiatini tushunib yetadi: jo'shqin yoki sokin hikoya, uzuq-yuluq yoki ravon bayon, savollar, javoblar, xitoblar. Badiiy obraz ancha tushunarli va konkret bo'lib boradi, musiqa ifodali vositalarining she'riy so'z

(qo'shiqda), syujet (dasturli pyesada), harakat (dramalashtirilgan o'yin, raqsdan) bilan birikishi tufayli kuchli taassurot qoldiradi. Shunday qilib, emotsional ta'sir va yoshlar badiiy obrazining oddiy xususiyatlarini anglash asosida musiqa didining dastlabki namoyon bo'lishi sodir bo'ladi.

Musiqaga va musiqa faoliyatiga ijodiy munosabatni o'stirish. Pedagog yoshlarni o'qitar ekan, ularga ma'lum bilim va malakalarni egallashlarida yordam beradi. Har bir o'smirda ijodiy tasavvurlarni, ya'ni idrokning bevositaliligi, obrazni o'zicha ifodalash, qo'shiq, o'yin, raqsga qiziqish hamda ishtiyoqni o'stirish kerak. Bu muhim metodik talabdir.

Musiqa asarlari pedagogik maqsadlarda tanlanar ekan, quyidagilarga — musiqa, qo'shiq matnlari xarakterida va dasturli cholg'u pyesalarning normalarida ochib beriladigan emotsional-obrazli mazmunga, mazmunli yo'nalganlikka;

- janrga - lirik-vazmin, qahramonona-tantanali, hazil-quvnoq;
- strukturasiga - ayrim qismlar, iboralar, muqaddima, xotima;
- ifodalilik vositalariga — yuqori laddan eshitishga, registr, dinamik, templi, metr-ritmik, tembrga ehtibor berish lozim.

Estetik tarbiya shaxsning jamiyatda estetik madaniyatini egallab olishiga bog'liq bo'lib, turli yo'llar va shakllar yordamida amalga oshiriladi. Jamiyatning estetik madaniyati deganda, insoniyat butun rivojlanishi tarixi jarayonida to'plagan moddiy va ma'naviy qadriyatlari majmui tushuniladi. Shaxsning estetik madaniyati uning jamiyat madaniy merosini faol, ijodiy o'zlashtirishi natijasida hosil bo'ladi. Shaxsning go'zallik bilan o'zaro munosabati, shuningdek, shaxsning ayrim sifatlarining o'zaro ta'siri natijasida estetik madaniyati doimo o'zgarib turadi. Shaxsning estetik madaniyatini asosiy tarkibiy qismlari – estetik ong, idrok, hissiyot, ehtiyojlar, munosabatlar va estetik faoliyatlardir. Estetik did shaxsda uning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarining qo'shilishi natijasida hosil bo'ladigan murakkab hodisadir¹. Estetik did estetik axborotlar oqimi, estetik va axloqiy meyorlar yig'indisi orqali shakllanadi va shaxsning buyum, hodisalarga estetik baho berishida yaqqol namoyon bo'ladi. Estetik tuyg'u - shaxsning buyum yoki hodisaga estetik baho berish munosabatini boshdan kechirishdir. Estetik tuyg'u o'quvchining mazkur buyumning shakli, rangi va mazmunini mushohada qilishga yordam beradi.

XULOSA

Musiqada tuyg'ular hayotiy tuyg'ularning aynan o'zi bo'lmay, ular tanlab olingan, tasodifiy lahzalardan tozalangan, muayyan orzular nuqtai nazaridan anglangan bo'ladi. Musiqa inson hissiyotlarining barcha rango-rang tovlanishlarini aks ettirishga qodir. U eng murakkab tuyg'ular, eng nozik kechinmalar va kayfiyatlarni ham ifoda eta oladi. Musiqa vaqt mezoniga amal qilib, kechinmalarning o'zgarib

¹ Каримова Д.А. Музей педагогический махорат асослари. – Тошкент.: «Иқтисод-молия», 2008. -80-98-б.

turishlari, avjlanishi va pasayishi jarayonlarini qamrab oladi. Musiqa murakkab ijtimoiy tuyg'ularni, eng avvalo, hayotdagi nutq ohanglari yoki harakat vazanlari aks etadigan ahloqiy his-tuyg'ular, chunonchi, sevgi, nafrat, g'urur, qo'rquv, estetik san'at yoki tabiat nafosati, ulug'vorlik, fojiali, kulgili tuyg'ularni ifodalaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Djumaev A. “Uzbekskaya klassicheskaya muzika Fitrata i borba idey» «TSentralg'naya Aziya i Kavkaz». TSentr politicheskix issledovaniy (SHvetsiya)1997-2005. –S. 39.
2. Kant I. Kritika sposobnosti sujudeniya. Muzikalnaya estetika Germanii XIX veka. T. 1. M.: 1982. -S. 78.
3. Shopengauer A. Svoboda voli i npravstvennost. — Moskva.: Respublika, 1992. –S. 59.
4. Mirxaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa sanastiningrivojlanish jarayoni.// O'quv kyllanma. –Toshkent.: O'zbekiston davlat kontservatoriyasi. 2009. –B. 33.
5. Mirxaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa san'astining rivojlanish jarayoni.// O'quv qo'llanma. –Toshkent.: O'zbekiston davlat kontservatoriyasi. 2009. –B. 33-34.
6. Tashbaeva D. Esteticheskoe bogatstvo i natsionalniy kolorit uzbekskix kolibelnix pesen. San'at. 1 / 2005.
7. Falsafa. Qomusiy lug'at. -Toshkent: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. “Sharq” nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004. - 157 b.
8. Abdulla SHer, Bahodir Husanov. Estetika. Uslubiy qo'llanma. 2-nashr. - Toshkent: O'zMU, 2008. –48 b.
9. Falsafa. Qomusiy lug'at. -Toshkent: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. “Sharq” nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004. – 81b.
10. Nazarov A. Antik davr musiqa madaniyati. –Toshkent.: M(m)N-19. –B.
11. Shirinov T.Sh. Tariximiz etyudlari. –Toshkent.: Sharq. 2008. –B. 336.
12. Nazarov A. Antik davr musiqa madaniyati. –Toshkent.: M(m)N-19. –B.4.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. –Toshkent: “O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2007, 3-jild. -79 b.